

1. Tuproq tirik organizmlarning yashash joyi sifatida



Jamoalarga bo'lining. O'z jamoaviy topshirilaringizni bajaring:
Bir minut ichida **atmosfera** (quruqlik-havo muhiti)da yashovchi jonzotlarning iloji boricha ko'proq nomini yozib chiqing.

Bir minut ichida **gidrosfera** (suvli muhit)da yashovchi jonzotlarning iloji boricha ko'proq nomini yozib chiqing.

Bir minut ichida **litosfera** (tuproq muhiti)da yashovchi jonzotlarning iloji boricha ko'proq nomini yozib chiqing.

Natijalaringizni boshqa jamoalarning natijalari bilan solishtiring.
Qaysi jamoa jonzotlarning ko'proq nomini yozdi?



Bu rasmda tuproqda yashovchi qaysi jonzotlarni ko'ryapsiz?



2. Tuproqda doimiy yashovchi jonzotlar



Tuproq muhitida yashovchi jonzotlar qanday foyda keltiradi?

Tuproqning unumdorligi unda yashaydigan jonzotlarga bevosita bog'liq. Bu jonzotlar tuproqni teshib, yo'llar ochadi, keyin bu yo'llardan suv va havo kirib, tuproqni aralashtiradi, o'simliklarning qoldiqlarini maydalaydi. Tuproq uchun foydali jonzotlardan biri **yomg'ir chuvalchanglari**dir. Unumdor tuproqning 1 kvadrat metrida 300 tagacha chuvalchang yashashi mumkin.



O'simliklar uchun foydali yerosti jonzotlaridan yana biri **ko'rsichqonlardir**. Ko'rsichqonlar o'simliklarning ildizini yeydigan qo'ng'izlarning lichinkalari bilan oziqlanadi. Ko'rsichqonlar yerni kovlab, yumshatib, kislorod bilan to'yintiradi. Afsuski, dehqonlar ko'rsichqonlarni zararkunanda deb hisoblaydilar, chunki ko'rsichqonlar yer ostini kovlab, ekinlarning ildiziga zarar keltirishi mumkin.

Yerqazarlar hasharotlar bilan oziqlanadigan mayda yirtqich hayvonlari. Ular yer ostida yashab, lichinka va chuvalchanglarni topib yeydi. Yerqazarning organizmi juda ko'p quvvat sarflaydi, shuning uchun u oz-ozdan uxbab, doim yegulik izlab yugurishga majbur bo'ladi. Yerqazar bir kunda o'z vaznidan bir necha marta og'ir ozuqani yeya oladi.



Daftaringizda doimiy yoki hayotining ma'lum bir davrida yer ostida yashaydigan jonzotlarning rasmini bo'yang.

3. Tuproqda vaqtincha yashovchi jonzotlar



Qaysi jonzotlar yer ostiga in quradi?

Tuproqda doim yashovchi jonzotlardan tashqari, faqat uqlash yoki qishlash uchun in qaziydigan tulki, bo'rsiq, yumronqoziq, sichqon, qurbaqa, ilon, toshbaqa kabi turli jonzotlar bor. Chumolilarning uyasi ham yer ostida joylashgan bo'lib, u yerda yerosti yo'llari ham bor. Ko'pchilik hasharotlarning lichinkalari yer ostida oziqlanib, keyinchalik qo'ng'izga aylanganida yer ustiga chiqadi.

Buni qarangki, yurtimizning cho'l hududlarida ba'zi jonzotlar faqat qishni emas, jazirama yozni ham uyquda o'tkazar ekan. Masalan, yumronqoziqlarning mana shunday ajoyib xususiyati bor. Bu jonzotlar yegulik va suv topish qiyin bo'lgan noqulay ob-havo mavsumlarini shunday o'tkazadi.



Nima uchun chuvalchanglarni yomg'ir chuvalchangi deymiz?
Qattiq yomg'ir yog'ganda bu chuvalchanglar yer ustiga chiqib oladi, chunki yomg'ir yerga singib, tuproqni to'liq suv egallab oladi. Chuvalchanglar esa terisi bilan nafas oladi, shuning uchun suvgaga to'yingan tuproqda bo'g'ilib qoladi. Ular yomg'ir paytida nafas olish uchun yerning ustiga chiqib oladi. Shu sababli ular yomg'ir chuvalchangi deb ataladi.



1. Qanday jonzotlar tuproqda yashaydi?
2. Tuproqda yashovchi jonzotlar o'simliklarga qanday foyda keltiradi?



Tuproq qatlamida yashovchi jonzotlardan biri haqida ma'ruza tayyorlang. Bu jonzot sizda qanday qiziqish uyg'otdi?